




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI
2023- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Tel.: 76-225-65-76

www.surxonstat.uz

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar-fevral oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 873,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 91,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 47,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




yanvar-fevral

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	21,2	42,0	20,8
Neft, ming t.	14,0	11,8	-2,2



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	5,9	4,5	-1,4
Chaqiq tosh, ming t.	12,4	0,0	-12,4

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 824,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,4 % ini tashkil etdi.


2022- yil yanvar-fevral

91,1 %

2023- yil yanvar-fevral

94,4 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,0 % (19,5 %) va quyi texnologiyalisi – 72,7 % (70,6%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,9 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 46,8 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,0 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Non




Saryog'




Makaron




Sut



Paxta chigiti



Paxta tiviti (lint)




2023- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,1 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 67,9 % ga kamaygan), 0,9 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (23,6 % ga kamaygan), 0,7 ming tonna lint (71,6 % ga kamaygan), 7,5 ming tonna neft bitumi (67,7 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	3,2	3,1	-0,1
Paxta tiviti (lint), ming t.	6,0	0,7	-5,3
Neft bitumi, ming t.	3,8	7,5	3,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	17,4	13,4	-4,0
Saryog', t.	0,4	0,1	-0,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,9	0,6	-0,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 85,4 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 129,4 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 4,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 61,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,5 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 51,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 184,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 35,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 48,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 117,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 42,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 83,7 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 372,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 82,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 109,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 36,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 120,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 99,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,4 % ni, fizik hajm indeksi 85,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 65,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 86,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 220,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 79,8 % ga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	12,8	2,9	-9,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	9,2	8,2	-1,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	0,4	0,03	-0,37
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	3,8	4,9	1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 7,6 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,03 mlrd. so'm shuningdek, 4,9 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 296,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-fevral

53,3 %

2023- yil
yanvar-fevral

51,9 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-fevral

46,7 %

2023- yil
yanvar-fevral

48,1 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,9 % (2022- yil yanvar-fevral oylarida 0,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 24,6 % ni, 14,2 % Denov tumaniga to'g'ri kelib Jarqo'rg'on 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (98,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Denov (129,9 %), Sho'rchi (121,8 %) va Angor (121,0 %) tumanlarida qayd etildi.